

AZIZ NORQULOV

AZIZ
N-719



AZIZ NORQULOV


POSANGI

Aziz Norqulov 1984-yil Jizzax viloyati, Baxmal tumanida tugʻilgan. Oʻzbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. 2014-yildan buyon Oʻzbekiston Qurolli Kuchlari safida xizmat qiladi. Ayni vaqtda Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti boʻlim boshligʻi, Xalq taʼlimi aʼlochisi, Mudofaa vazirligining "Namunali xizmati uchun" koʻkrak nishoni bilan taqdirlangan. 2018-yilda oʻtkazilgan Yosh ijodkorlarning Zomin seminari ishtirokchisi.

"ADABIYOT"

NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6780-6-4




9 789943 678064

BIRINCHI KITOBIM



POSANGI



HIKOVALAR

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предъявляющих
выдачу

--	--

821
V-K-9

- 1503 -

ЎЗБЕКИСТОН YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJD" JAMOAAT FONDI

AZIZ NORQULOY

OSANGI

Hikoyalar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Nashr uchun mas'ul:
G'ayrat MAJID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari

Mas'ul muharrir:
Xurshid DO'STMUHAMMAD

Ijod ko'ngil mulki. Bu mulkni mehnat va mehr bilan asrash, o'stirish ijodkorga bog'liq.

Aziz Norqulov ham qalbini, undagi So'zlarini ijodga bo'lgan muhabbati bilan asrab-avaylab kelayotgan ijodkordan. Zero, u yurt himoyasiga shaylangan posbon, hayoti, faoliyati tinchlikka kamarbasta.

Ammo u ijod olamidagi mas'uliyatini ham unutmaydi. Hikoyalariida sodda, to'pori, jaydari insonlarning turmushini, o'zbekona hayot manzaralarini tasvirlaydi. U mana shu samimiyligi bilan o'quvchilar ko'nglini zabt etishiga ishonamiz.

Ushbu kitob 2019-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6780-6-4

© A. Norqulov, 2020
© "Adabiyot", 2020

TILAK

Hozirgi paytda badiiy ijod maydoniga kirib kelish, xususan, nasr bobida qalam tebratish har qanday iste'dod sohibini zo'r sinovlarga ro'para qiladi. Xo'sh, ne maqsad-muddaoda hikoya yozishga qasd qilding? Qanday GAP aytmoqchisan? Qay tarzda bayon etmoqchisan? Qachondan beri bu mashqatqat dardiga giriftor bo'lding? Muttasil o'qish, muttasil yozish sinovlariga dosh bera olasami?..

Shu singari savollarni qalastirib tashlaganimda qo'limizdagi kitobcha muallifi Aziz Norqulov avvaliga bir zum fikrini yig'ib oldida, darhol o'zini o'ngladi. Biyron-biyron javob qaytarishga tushdi.

So'ng hikoya va hikoyachalarni o'qidim. Ukamizning insonni murakkab va chalkash ruhiy holatlarini tasvirlashga urinishi yoqdi. Dunyoni va insonni bu tarzda idrok etishga moyil qalamkashlar nozik va galtis vaziyatlar yasaydilar-da, ko'proq ishoralar, havolalar, gochirimlar orqali obraz yaratishga urinadilar. "Rishta", "Otmagan tong", "Bo'y bermagan bolalik" bunga yaxshi misol. Bir mulohaza: murakkab ruhiy tebranishlar chog'ida inson

qiyofasini "chizish" o'ziga yarasha nihoyatda ziyrak va zargarona ustalik bilan qalam tebratishni taqozo etadi. Aks holda, muallifning dilida paydo bo'lgan va uni yozishga undagan GApni o'quvchi ilg'ashga qiyinaladi, o'zida tug'ilgan savollarga javob topolmay qoladi. Azizning mashqlarida ko'zga tashlanayotgan mana shunday qusurlar bora-bora sayqal topib ketadi, deb o'ylayman.

Tilagimiz, xolis: birinchi kitobcha katta ijodlar sari boshlasin do'stimizni.

XURSHID DO'ST MUHAMMAD,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
yozuvchi*

POSANGI

U hatto xayollarini ham jilovlab yashardi. Gohida o'z-o'ziga tanbeh berib, hayotini baddastir qilish, barchaga yaxshi ko'rinish "majburiyati" uni o'zligidan uzoqlashtirib yubor-gandi. Hatto o'zi bilan hasratlasholmasdi. Hayot posangisi sira tutqich bermasdi. Oxiri bardoshi bitdi. Jilovini bo'sh-bayov qo'ysa, shoirning ushbu satrlarini yodga olardi: "Men o'zni tiyayapman o'zni tiyishdan". Barcha ishni yig'ishtirdi. Boshi oqgan tomonga ketdi.

Olislarda iztirob-la izg'idi. Nimalardir qidirar, xohlayotgan narsasini o'zi ham bilmasdi. O'zidan qochib, o'ziga tutilardi. Hayot bilan xayol qorishib ketdi. U kimsasizlik azobini totardi. Umrda birinchi bor kelgani bosh-adog'i yo'q o'rmonda yolg'iz qolganini sira unutmaydi.

Quyug daraxtzor shovullab sirtli shivirlaydi, vahima uyg'otadi. Qani alomatlarini tushuna olsam. Yalmog'izning uyidan farq qilmaydigan yog'ochdan yasalgan ijaraxonani topish mahol bo'lyapti. To'rt tomon farsiz. Qadam bossang, yutib yuboradigandek.

Istar-istamas o'ngga qaytildim, – hikoya qiladi u. – Kun botguncha ulgurish kerak. Yu-

guray desam, oyoqlarimda hol yo'q. Sudralmoqdan beri bo'lib ildamayman. Bir mahal ko'zimga bo'yim baravar maymun ko'rindi. Esankirab qoldim. Sakrab tushgan allaqanday maxluq yelkalarimni panjalari bilan g'ijimlay boshladi. Hushim uchdi...

Chalp-chulp ovozlardan o'zinga keldim.
Bir gala maymunlar yemakxo'rlik qilaypti.
O'rtada odambashara maymun raqsga tu-
shadi. Maymunlar zavqlanib, qichqiradi. Tu-
shimmi, o'ngimmi, u dunyoni, bu dunyo, bi-
jolmayman.

Maymunlar horib, g'alat ovoz chiqarib
targala boshladi.

Odambashara bilan ikkalamizdan boshiga
hech zog' qolmadi.

- Seni bu yerga kim olib keldi? - deb o'zini roslamoqchi bo'lganini bilaman, yugurib kelib bo'yingga osildi. Sochimdan yulqitadi. Qo'l-oyoqlarini paypastlasiga tushganida chidayolmay xezlangandim, chunonam tishladiki, chayrab tashlagudek.

Boshiga urdim. Dast turib, chopib ketdi. Arang kuch topib, ortidan yugurdim. Goh o'ng, goh chap qilib g'zillaydi, dam-dam tepaga qarab-qarab qo'yadi. Poyonsiz kenglikka chiqib qoldik. U maysalarga oyoq qo'yishi bilan tuklari yo'qoldi. Tanasiga qarab uvos

yig'lashga tushdi. Yopirilib kelgan maymunlar galasi mayсалar uzra hatlab o'tolmasdi. Alarning zo'ridan ilingan narsani olib uloqtira boshladi. Qo'llarim bilan yuzimni panalab qarasam, hech vago yetib kelmayapti. Ko'z ilgamas devor tutib qolardi. Sevinchli hayratda edim.

Botirlashdim.

Chegaradan chiqmasam bas. Yosh boladek ko'rinadigan maymunchani yetaklab tongotar tomonga yurdim. Pishqirib, o'kirib qarshilagan yo'lbarslar o'zigagina ayon chiziqdan o'ta olmasdi. Bolamaymun yutog'ib, hansirab qo'llimdan chiqishga urinardi. Sal xayollangan-
dim, qochib qoldi. Toliqqan bo'lsam-da, ortidan chopdim. Yo'llim ummas, qadamimi yer
quyug' o'rmonzor ergashib kelayapti. Sillam quritib, emaklashga tushdim.

Nihoyat... oyogqhasidan tutdim. Chunonam tepdiki, arang ushlab qoldim. Yana boldirigacha jun bosib ketdi. Dodlab yubordim. Bor kuchimni to'plab, dast ko'tarib yerga urdim. Miq etmadi. Yana chopdim. Eng so'nggi imkon. Tobora quyuqlashib quvlayotgan o'rmondan panoh yo'q. Qiyalashgan qirlik qarshisidan chiqdim. Dumalashdan boshqa chora qolmadi. Bir-ikki aylangandim, maysalar meni go'yo

ko'tarib qo'lma-qo'l uzatayotgandek tuyula boshladi. Zaminda uchib ketardim go'yo.

– Xaloskor, xaloskor...

Maysalarning mayin shiviri qulog'imga yoqimli eshitiladi. Qancha yo'l bosdik, bilimayman. Qarshimda biz ijaraga olgan uy turardi. Razm solum, o'zim ham yog'ochning ustida ketayapman. Odamlar qo'lma-qo'l uzatayapti.

– Obod bo'lsin, obod bo'lsin...

Umr bo'yi chegaradan chiqmay yashagan inson o'lim bilan hayot, foniylik bilan boqiylik aro sarosar kezardi.

RISHTA

Yo'l-yo'lakay o'ylab, xayolimni chalgitishga toqatim yetmayapti. Qanotim bo'lsa-yu, uchib ketsam. Shundoq osmonga ko'tarilsam. Birpasda tog' etagidagi uyimizga yetib bor-sam...

Qo'ng'iroq xayolimni ostin-ustin qilib yubordi. Faqat ulgurishni o'ylar edim. Mashina jilishi bilan haydovchidan tezroq yurishini o'tindim. Aksiga olib, hamisha jim ketadigan yo'llovchilarning bugun kayfiyati chog'. Balki, tanishlardir. Ashulaga jo'r bo'lishadi. Holim bir Xudoga, keyin faqat o'zimga ayon. Shoir

aytganidek: "Yig'lab baxtilarning joniga tek-kim" kelmadi.

Tashqarini jimgina kuzatib ketayotgandim, qo'shiq qulog'imga chalindi:

Momolar hikmati, so'zi bor joyda

Mening aytganlarim barisi mayda...

Pichirlab takrorlayman. Topib aytilibdi. Enamning ham so'zi hikmat, qadami ibrat edi. Oxirgi ko'rganimda og'riqning zo'ridan g'ujanak bo'lib qoldirdi. Biroz o'ziga kelgandan keyin: "Bergan dardingga ham shukur" deb qo'yardi. Shifokor og'riq qoldirish uchun spirt ichishni tavsiya qildi. Azobda o'tirgan enam: "Necha kunlik umrim qoldi, tozagina ketayin" deb unamadi.

Qirg'kecha-kunduz o'tibdi. O'shanda mahkam quchib bor mehrimni izhor qilmaymanmi? To'yib olmaymanmi? Ammalarimdan tortindimmi? Bergan pullarini olishga uyalmadim-ku...

Hech narsa yemay qo'yganiga bir haftadan oshgandi. Lablari quruqshasa, suv tomizishardi. Holi kelsa, gap berib yotardi. Ta'ziya xabarini eshitsa, shu ko'yda yotganida qanchalab sog'lom odamlar u dunyoga rixlat qilganini sanar, kasal to'rda – sog' go'rda, deb qo'yardi. O'zidan oldin ularning o'tib qolganiga xijoat bo'lgandek.

Bir joyda sarg'ayib ketgan bug'doyzor tez-
roq yig'ishtirib olinishini kutarkan. Ikkinchi
tomonda hali yashilligi ketmagan boshqo-
lar o'rib olinarkan. Dunyo shunga o'xshay-
di. Birov o'limni kutadi – yashaydi, boshqasi
yashashni istaydi – imkon yo'q. Dunyoning
tamal toshi boshidan teskari qo'yilgan, chog'l.
Enamning rivojat va hikoyatlarini, tariximiz
haqidagi ma'lumotlarni kitoblardan topa ol-
maganman.

Bir haftalik ta'tildan so'ng o'qishga otlan-
dim. Xayrlashishga kirsam:

- Mana buni ol, – dedi sekingina.
- Qo'ying, ena, pulim bor...
- Meniki tabarruk, olaver, bolam.
- Ena, ishga kirganimni aytdim-ku. Endi
o'qib, ham ishlayapman, – deyman.

Ammam aralashadi:

– Qo'lini qaytarma...

Enam uzundan-uzoq duo qildi. Qo'llariga
suv quyarkanman: "Bu kunlarni aytib yu-
rasan, o'qishga davlat o'qitadiganiga kirib
ketasan", – derdi. Duoning quvvati yana qish-
loqqa qaytgunimcha yetardi. Endi-chi?..

O'sha duo eng so'ngisi ekanini qayerdan
bilay?i Xayolimni jamlab, haydovchiga ma-
shinani tezroq haydashini ishora qilaman. Bo-
bo-momlardan sabr-tog'atni, mehr-oqibatni

qancha o'rgansak oz. Faqat ulgurish haqida
o'ylayapman, yo'qsa, yo'lda shoshirish yaxshi
emas. Eh, bu yo'llar, yo'llar. Bizni qayerlarga
olib borarkan?

Noshukurlik odamni qanday ko'chalarga
olib kirmaydi. Ota-bobolarimiz urush mahal-
lari bir burda nonga zor bo'lgan. Ko'klam kel-
sa, qirlarga chiqib rizq qidirgan. Yurt ozodligi
uchun bor-budini tikib, mashaqqat tortishgan.
Enam ("rahmatli" deyish erish tuyularkan)
qotgan nonni choyga botirib, yeb o'tirarkan:

- Qani endi, tandir somsa bo'lsa, odamning
ko'ngli ba'zan kabob tusab qoladi, – derdi go-
hida. Yana gapidan xijolat bo'lardi. – O'g'lim,
bu ham bir gap-da, yetkazganiga shukur. Eng
davr-u davron surayotgan paytim hozir.

Na kelinlarini, na o'g'illarini koyimadi.

Faqat ichkilikni ko'rsa:

- Ha, pitimningga shamol, – deb qo'yardi.

Enam bilan bir xonada uxlardim. Amakimi
uyg'ota-uyg'ota xonasiga chiqarib yuborguni-
cha allamahol bo'lardi. Keyin qanday o'yim,
savolim bo'lsa, aytardim. Enam erimasdan
tushuntirardi. Xatolarimni to'g'ritib, ba'zan
o'zi dardini yorib qolardi.

– Marziyaning qishloqda turib, kelmagani-
ga o'n sakkiz kun bo'ldi. Qo'shni qishloqdagi
Zamira yetti kun oldin kelib-ketgandi. Sofi-

yani ko'rmaganimga bir oydan oshdi. Mariya arang bir yilda keladi. Unga qiyin, olisga uzatganimiz.

Hisobdan adashmasdi. Tabiat bilan tilla-lashardi. Ertalab falon payti uyg'oting, desangiz, yotgan joyidan:

– Bolam, tura qol, soat besh bo'lib qoldi.

Ko'zimni uqalab soatga qarasam, roppa-ro-sa besh. Agar o'rnidan tura olmay yotganini bilmaganimda, turib soatni ko'rib kelib, yana yotib oldi, deb o'ylardim. Oshxonada tuni bilan kitob o'qib chiqardim. O'qishga kirishim kerak. Litseyda o'qib, kontraktga ham kira olmay, yuzim shuvut bo'lgan. To'y-ma'rakaga chiqishga uyalaman. Hamma qo'lini bigiz qilib ko'rsatayotgandek: "Litseyda o'qib o'qishga kira olmagan noshud..."

Enamning oldiga kelgan momolar: "Sen uxlamaysanmi?!" – deb so'rardi. Hozir u momolarning bari o'tib ketdi. Ba'zida subhatlar tonggacha cho'zilar. Ulug'lar bog'lab turgan rishta uzilib ketdimikan? O'sha momolarning o'g'illari, nabiralari bilan bordi-keldimiz yo'q.

Kundalik yumushim – enamga qarash va o'qishga tayyorlik ko'rish edi. Qancha mu-tolaa qilmay, charchoq nimaligini bilmasdim. Xonadagi jihozlar qanchalar qadrdon bo'lib qolganini aytсам, ishonmaysiz. Kiyim ilgich-

dan sandiqlargacha, deraza chetlarini qoplab oladigan tartanaklarga...

Qo'shni xonada dars tayyorlab o'tirardim. "To'q-to'q..." etgan tovush eshitilsa, yugurib chiqardim. Enam hassaga tayanib, tashqarilayotgan bo'lardi. Qo'lidən ushlab, qo'ltig'idan tutaman. Toza havoga chiqishi faqat shu. Bora-bora bunga ham qiyinaladigan bo'ldi. Ihrab-ingrāb yotardi. Tез-tez borib dera-zadan quloq solib kelardim.

– Bergan dardingga shukr, – ingroq ovoz eshtilardi ichkaridan.

Ba'zan endi ko'zim ilinayotgan mahal al-lambalo bosib kelardi. Nafas olishga qiynalib qolardim, qo'l-oyog'imni qimirlatay desam, haligi "gora botir" mahkam tutib olgan. Beix-tiyor baqirib yuboraman.

– Bolam, joyingni almashitirib yot...

Enamning ovozi dan o'zinga kelaman. Xay-riyat. Hammasi ortda qolganiga shukur qilib, to'shagimni qaytadan solaman. Boshimni boshqa tomonga qo'yaman. Osoyishta orom olaman. Ich-ichimdan enamning bilag'on-ligiga tasanno aytib, g'ururlanib yotaman. Goh-gohida "puf, puf..." lab, uyquga ketadigan enamning o'zi ham bosinqirab qoladi.

– Ena...

Balandroq ovoz chiqarib uyg'otaman.

– Nobop yotib qolibman. Yaxshi uygʻotding...

Endi hammasi xayolda qoldi. Oʻlding – oʻchding. Subhbatari, nasihatlarini olmayman! Nuri chehrasini bir koʻrib qolsaydim. Haydovchiga oʻtinchi nigohlarini qadayman. Tushungandek bosh iringʻaydi. Shahardan chiqqanimizdan beri spidometr millari yuzdan kammi koʻrsatgani yoʻq. Yuragim hapqirib, yugurib ketgim keladi...

Bir kecha enam yotish oldidan sandiq tushirtirdi. Katta-kichik tugunchalar, uniqib ketgan qogʻozlar, eski-tuski ashyolar tagidan qogʻozga oʻrogʻliq narsa oldi.

– Buni oʻzimdand oʻzim oʻgʻirladim. Yashirib qoʻy, qoʻsha olsang, qoʻsh. Yaxshi kuningga ishlatasan.

– Nima qilaman buni? Oʻzingiz ishlating.

– Meniki tabarruk, necha kunlik umrim bor. Olib qoʻyaver, hali ayta-ayta yurasan.

Nimtabassum balqib turgan yuzlariga qarab, ixtiyorsiz olaman. Oʻsha tuni tonggacha orom olo olmayman, oʻlib qolsa, nima qilaman? Vasiyat qilgandek tuyuladi. Bu haqda hech kimga indamadam. Baʼzida kelinlarning “Qancha ishim qolib ketdi” deya mingʻirlaganini eshitib ranjirdim.

– Bir umr shunday yurmaysizlar-ku, qadriga etib qolinglar, – degim keldi. Tilimni

tiyardim. Xuddi sirni ochib qoʻysam, enam dabdurdustdan oʻlib qoladigandek. “Duoi fotihadan qismanglar” deya koʻp tayinlardi.

Koʻzimga yoshim, boʻgʻzimga ovozim tiqilib, uyga kirib bordim. Yigʻlay desam toʻvushim chiqmasdi. Oʻsha qadrdon xonaga qarab otildim. Chugʻurlashib oʻtirgan xotin-xalajim boʻlib qoldi. Oʻzimni oʻnglab olgunimcha qabrboshiga ketganlar qaytib kela boshladi. Yana hovlini uvvos yigʻi ovozi tutdi...

Bu voqeaning sodir boʻlganiga yigirma yil boʻlyapti. Hozir ham oʻsha qadrdon derazaning oldidan oʻtayotsam, chirkay qoplagan oynalar orasidan ichkariga moʻralayman. Men uchun muqaddas oshiyon omborxonaga aylangan. Chiriyotgan piyozdan tortib, ishlatilishi dargumon boʻlgan supurgilarga cha shu yerda. Begʻubor bolaligimning fayzli damlari oʻtgan xonadan enamning ingragan ovozi eshitilgandek tuyuladi. Yana bolalikka qaytgandek, momolar hikmatidan ulgu olgandek boʻlaman. Koʻzimga yoshim, boʻgʻzimga ovozim tiqilib, u yerdan uzoglashaman. Bizni bogʻlab turgan muqaddas rishta mustahkamlanib boraveradi. Enam xotiramda tirik qoldi.

OTMAGAN TONG

Xarxasha qilib, nonni uloqtirgan Nozimani buvisi qattiq koyidi:

– Nonni otma, ko'r bo'lasan.

To'rt yoshdan oshib, esini taniy boshlagan qizaloq shosha-pisha non ushqoqlarini olib, yuz-ko'zlariga surtdi. Keyin hayrat bilan so'radi:

– Bobom ham nonni otganmi?

Savol Halimjonning yuragiga nashtardek sanchildi. O'zini eshitmaganga oldi.

Bu voqealarga o'n yildan oshdi. Hozir hay-hotdek hovlida yolg'izlikdan yorilib ketay deb o'sha kunlarni eslab o'tiribdi. Umr o'taverar, inson ko'nika ekan. Malaka oshirishdan purvigor tog'larni, sayrab tongni uyg'otadigan bulbullarni sog'inib qaytgandi. Tiniqib uxlagach, qushlar nag'masiga quloq tutib yotar-di. Halimjonning tongi boshqa otmadi. Ertalab turganida atrof zim-ziyo edi, qo'zg'almoqchi bo'ldi. Oyoqlari bo'ysunmadi. Qo'llariga tayanib o'tirishning uddasidan chiqolmadi. Oyoq-qo'li ishlamay, yorug' dunyoni ko'rmay ikki oyga yaqin yotdi. Bormagan folbin-u qushnoqlar qolmadi. Qancha qora tovuq, ola qo'chqorlar so'yildi. Naf bo'lmadi.

Oyoq-qo'llar sog'aydi. Ko'z qurg'ur butov. Nonni yuzlariga surgan biyron tilli nabirasi-ni ko'rmagan. O'g'lini uylantirganida o'zi ko'rolmagan to'y tatimadi. Dardiga sherik bo'lgandek kun bo'yi yomg'ir quydi. Yolg'iz to'ng'ich nabirasi Nozimani o'z ko'zlari bilan ko'rgan. Elias-elas eslaydi. Qolgan nabi-ralarini basirat ko'zi bilan taniydi. Xatolari-ni boshi yostiqa tekach tushundi. Hozir bemor haqida eshitsa, hamroh topib ko'rgali oshiqadi.

Insof, oqibat yo'qolib ketayotganidan tinimsiz noliydiganlarning holiga qarasang, kulging keladi. Ixtiyor akasini o'yladi, so'zlardan tavof qilib yuboray deysan. Arzimas aqchaga yuztuban ketganidan hafsalang pir bo'ladi. To'shakka mixlanganida xabar olmadi. Bormagan do'xtiri qolmadi. Ko'p o'tmay akasi og'ir dardga chalindi.

Halimjon tez-tez hol so'rab turdi.

– Uylatirding. Sog'ayib olay, yolg'izlatib qo'ymayman.

– Borligingiz baxtimiz. O'zingizni asrang. Sal oyoqqa turgan Ixtiyor aka va'dasini unutdi, ichkilikka mukkasidan ketdi. Halimjon ginasini ichiga yutdi. Boshida bori peshonasiga tushadi. Shukur ichida yashadi. Sevinchi qayg'uning soyasida qolib ketadi. Ixtiyor

aka farzandsizlikdan dard chekardi, xotini-ning homiladorligidan bexabar ketdi.

Halimjonning yuragi siqildi. Paypaslana-paypaslana devorni chama qilib o'rgangan yo'lidan tashqariladi. Kurtak yozish arafasidagi daraxtlarning xushbo'yi dimog'iga urildi. Kayfiyati chog' bo'ldi. Xirgoyi qilib ko'rdi. Mog'or bosgan karaxtilik bostirib kelardi. O'ylamaslikka tirishdi. Hadik va xavotir bilan akasidan qoladigan yagona zurriyod haqida o'y surardi. Zulmat qo'yniga qo'l sermadi. Bolaligi koptokning ortida qoldi. Goh maqtab, goh koyiydigan kattalar ba'zan o'yinga qo'shilib ketardi. Janjal chiqib, kaltak yeyish ko'p bo'lgan. Bugun yoshlar vaqtini behuda ketkazmaydi. Bolaligida kimdir "Ixtiyorning o'zi bo'libsan" desa, boshi osmonga yetardi. Yillar o'tib, fikrlari o'zgarib bordi.

Akasining ko'ngliga ozor berib qo'rgan paytlari bo'ldi. Halimjon musofirchilikda mehrga to'ymagan talabalik davrlarini xotirlashni istamaydi. Uruşdan nogiron bo'lib qaytgan otasiga dilini yormasdi. Bir gal akasiga ko'ngil ochib, tuyg'ulari chil-chil bo'lgach, ta'na toshlarini yog'dirgandi.

Ko'cha eshik taqillagandek tuyuldi. Halimjon ko'zlarini piri-piratib qulog' tutdi. Jimjitlik. Ikki nafar farzandidan tug'ilmasidan ayril-

gandi. Hozir besh farzand, o'n bir nabirasi bor. Bo'yniga osilib erkalanihsa, ko'zida yosh bilan ot bo'lib, uy aylanadi. "Suyunchi" so'zini qachon eshitarkan? Xushxabar qanchalar maroqli! Mash'um xabarda o'zingni aybdordek his qilasan.

Xolasining qazo qilganini shifoxonadagi onasiga aytishga qiyналgan.

- Mazasi yo'q ekan. Sizni yo'qlashyapti.
- Uch-to'rt kunda chiqaman, ko'rib kelamiz.
- Bugun borishingiz kerak ekan, - kalovlangandi.

Otasi ilg'adi, noqulaylik barham topdi. Ixtiyor aka tahorat paytida jon taslim qildi. Juma namozidan keyin janozasi o'qildi. Halimjonning to'ng'ichi qarzarini bo'yniga oldi. Bolalarining hammasi "otamlab" yig'ildi...

Soat tungi ikkiga yaqinlashganda xotini bilan o'g'li kirib keldi.

- Nima bo'ldi? Ikkisi ham yaxshimi?

- Tabriklaymiz! Ism topib qo'yavering.

Shu kuni ular tong otguncha uxlamadi. Quvonch og'ushidagi Halimjon dardini unuttidi. Ertasiga xabar butun qishloqqa yoyildi. Tabriklarning keti uzilmadi. Xursandchiligini baham ko'radiganlar borligining o'zi BAXT.

Uning qulog'iga azon chaqirib, pinhon asrab yurgan ismini eng avval o'zi aytadi.

Halimjon chaqaloqni bag'riga bosar ekan, entikib ketdi. Qo'lchalaridan ushlab erkalandi. Yuzini yuzchalariga bosdi. Baxt og'ushida sarmast ekan, atrof rangin tovlana boshladi. Mittivoyning oyoqchalari ko'ziga ko'rindi, keyin qo'li, yuzi. U quyib qo'ygandek Nozimaga o'xshardi.

Tong otishiga oz fursat qolgandi.

ASORAT

– Kurashga, kurashga...

Madorsiz qo'llarini qimirlatishga majoli yetmayotgan Shifo chaqirqlarga unsiz quloq solib yotdi. Muolajaga bazo'r bardosh berayotgan zaif vujudi tetiklashayotgandi. Uvada ko'yagini alam aralash g'ijimladi, shifoxonada ham tinchlik yo'g'a? Beayov urush asoratlaridan xalq hanuz aziyat chekardi.

Millat frontga bor-budini topshirdi. Avval qo'lga qurol olishga yaroqli erkak kishi borki, armiyaga otlandi. Keyin yiqqan-terganlarini topshirishdi. Biror kimsa yoshman, ayolman, keksaman demadi. Mudhish urushda qancha odamdan qoraxat kelib oilalarning jigar-bag'ini qon qildi. Yana necha minglabi bedarak ketdi.

Qo'shni qishloqlik Oypari xola 22 yoshida erini urushga kuzatgandi. Shundan berisi nom-nishon bo'lmadi. Vafodor ayol o'lguncha qo'shninikiga chiqsa ham halloslab uyiga qaytardi: "Nogahon erim kelib qolsa, kutmasin!" Yetmish bir yoshida qazo qildi.

Bunday voqealarning adog'i yo'q.

Shifoni ham tirikchilik sargardonliklari shu yerga olib keldi. Bug'doy mashog'ida dalalarni kezdi. Bir tutam qoldiqdan behad shodlanib, mehr bilan terib olardi. Ba'zan talash-talash bo'lib, dahanaki jangga aylanib ketardi.

RO'ZG'OR degani to'lmaz ekan, qahraton qishda yegulik qidirgan mahallari ko'p bo'ldi. Bolalarining qorni to'q, usti but bo'lishi uchun tin olay demadi. Bug'doy o'rniqa jo'xoridan non yopganida farzandlarining och qolishidan cho'chib, aytmadi. Bog'ni obod qilishga zo'r berdi, kunimizga yaraydigani shu. Mut-tasli mehnat, ochlik tinkasini quriddi. Tomog'i qagrab yutindi, shosha-pisha tufladi: qoni!

"Kurash-kurash" undardi ichki ovoz. Chopiq qilishga unnadi. Boshni chayqaldi. G'ayritabiiy sharpalar orasida kichik qizi yugurib o'tdi. Jo'yaklar orasida hushidan aytilgan ona ko'zini ochganida oq xalatilar o'rab olgandi. Umid uzgan shifokorlar chorasiz uyga ruxsat

berib yuborishiga bir baxya qoldi. Xayollar og'ushida karaxtligni yengib, ham fikr, ham shukur qilayotgan Shifo o'z-o'ziga savol berdi: men qachon yashadim o'zi?

Bolalar och. Sigitning tug'ishini kutib, suqli-suqli kuzatib yurgan quvonchli damlari uzoqqa cho'zilmadi. Dabdurustdan o'lib berdi. Tirqirab oqayotgan ko'z yoshlari yuzini yuvardi. Silqinib tashqariladi. Yig'lay-yig'lay bo'shab qolgan og'il-u ayvonnini taqdir hukmiga chorasiz zardalar bilan chinidek tozaladi. Ortidan kelgan kichik o'g'ilning ko'zlarida-gi jiqqa yoshni ko'rib, ko'ngli vayron bo'ldi: norasidalarda nima ayb?

Xayollarini jamlab bu ajalxonadan eson-omon chiqib olish haqida qayg'urardi. Bolalari taqdiri, orzu-havaslarini o'ylay-o'ylay toliqqan ko'zlarini yumila boshladi...

Ko'zini ochganida kengish hovli, sayroqi qushlar, xushbo'yliklar quchog'ida ko'rdi o'zini. Ichkariladi. Nuri chehrali qariyalari ajabtovur subhat qurishayapti. Kim ular? G'ala-g'ovurda hech narsani ang'lay olmay, turib qoldi. Sirli nigoh ta'qib etayotgandek tuyulib, badani jimirib ketdi. Odamlar orasidan qahrli tikilayotgan qalin qoshli, oppoq soqolli boba gaynotasiga o'xshardi. O'zgarmabdi. Ko'rmaganiga saktiz yildan oshgandi.

Boboning o'zi tirik tarix edi. Undan ham vaqtida qoraxat kelgan. Dillarni vayron qilgandi. Ostona hatlab kirib kelishi esa so'navotgan shamlarni qayta yoqdi. Qaynotasining biror marta noliganini eshitmagan. Ko'rgan kuniga shukur qilard, "Foydaga qolgan jon"ni ayashni bilmasdi. Haromdan hazar qilard, ichkilikni ko'rsa, nari ketardi. Muloyim gapirard, kichiklarni ham sizlard.

Umrda ovozini balandlatmagan boba bu gal kelimga qo'llarini silkitib, chiqib ketishga ishora qildi:

- Ket, ket, nega kelding, qayt. Nabiralarningni, bolalarningni kimga qoldirding? Qayt, qayt, - kabi so'zlaridan titragan ko'yi tislendi...

Ko'zini ochganida terdan namiqqan ko'y-lagi badaniga yopishib qolgan, kimdir peshonasini silardi. Xotirjam tortdi, yaqinlarini yonimda. Bolalarim och qolmadimkin, ish-qilib? O'z holiga o'zi jilmaydi: "Nahot, onalarning yuragi har zarbida "bolam, bolam..." deya saslanasa.

Tashqaridan yana o'sha tanish, sirli ovoz eshitiladi:

- Pirashka, pirashka...

Tetiklashgan Shifo shivirladi: "Albatta, kurashman!"

HADIK

Hovlimizdagi ko'na imoratning bir bur-chagiga qarashga yuragim betlamaydi. Vahi-ma bosadi. Oxiri xavotirim sirining tagiga ye-tishga ahd qildim. O'zinni qo'lga olib, bilgan duolarinni pichirlay-pichirlay yaqinlasha-verdim. Girdimda zulmat quyuvqlashgani sari g'alati titroq qurshab borardi. Ko'zimni chirt yumib, ilgarilayverdim. Hadiklardan xalos bo'lishning yagona chorasi shu edi.

Dabdurstidan qadam bosolmay goldim. Na oldinga, na ortga. Paypaslanib, qo'linni cho'zdim. Argon ilashdi. Mahkam tortib, ol-dinga intildim. Oyoqlarimni nimadir chir-mab olgandi. Argonni zo'r berib siltaganinni xotirlayman...

Ko'zimni ochsam, biyday cho'lining o'rta-sida yotibman. Barxanlarni shamol to'zitadi. Naritroqda ikki qariya muk tushib o'tirib, al-lanimalarni pichirlashayapti. Qah-qah otgan kabi qo'llarini bir-biriga urib qo'yadi. Tushim-mi, o'ngimmi, angloimadim. O'rimdan turib yonlariga bormoqchi bo'lsam, belimgacha qumga botib yotibman. Qo'zg'alishga urinib ko'rdim. Bo'lmadi. Bo'g'imlarimning og'rigani qoldi. Yordam so'rab baqirdim. Qariyalar par-

vo qilmadi. Quyoosh ayovsiz qizdiriyapti. Issiq-da toblanib, pinakka ketibman.

Vag'ir-vug'urdan uyg'ondim. Atrof zim-zi-yo. Kim nima haqida gaplashyapti, bilish qiyin. Yohiroq qizchening ovozi eshitilgandek bo'ldi, singlimga o'xshaydi. "Suv, suv ob keling", - dedi kimdir. Bir gala otlar chopayotgandek du-purlar eshitildi. Qorong'uda hech narsa ko'rin-mas, faqat ustimga tulporlar to'dasi bostirib kelayotgandek. Ular yaqinlashdi, duch kelgan joyimdan yanchib o'taverdi, o'taverdi.

Tanarning yaroqli joyi qolmadi. Yerga qapishib ketdim. O'lim shu bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Og'rigini his qilmay qo'ygan ma-halim irg'ib o'rimdan turdim. Qarasam, ta-nam oxurning yonida cho'zilib yotibdi. Ustun-ga tang'ib tashlangan argonni changallab olganman. 5-6 chog'li odam bo'lmag'ur tax-minlarni muhokama qilyapti.

Ullarning ko'zini sham'alat qilib tashqa-riladim. Hovliga chiqib dilim yayradi. Qush-larning chug'ur-chug'uri, daraxtlarning sha-molga noz qilib bosh silkislari o'zgacha. Changog'imni bosish uchun oshxonaga yu-gurdim. Kirsam, onam bir chekkada yig'lab o'tiribdi. "Onajon" dedim yonlariga borib. In-damadi.

- Nega yig'layapsiz, kim xafa qildi?..

Sochlari birpasda oqarib qolgandek edi. Otamni qidirib tanamning ustidagi odamlar orasiga mo'raladim. Qarasam, Abduraim aka (sakkiz yil ilgari qazo qilgandi!) qo'llimdan argonni ajratib olyapti. Jon talvasasida siqib ushlab oldim. Egilib turgan qo'shimiz tok urgandek keskin tislaniib, ipni qo'yib yubordi. Qo'l-oyog'imni qimirlatib ko'rsam, o'zimga kelib qolibman. O'rnimdan turdim. Otam yugura kelib, mahkam quchib oldi. Boshqalar hayratdan dong qotishgan. Xavotir uyg'otadigan burchakka razm soldim.

Birtalay eski-tuskilar mol-qo'ylarning terisiga aralashib yotibdi. Sinchiklab qarasam, ularning orasidan bir juft ko'z tikilib turibdi. Esim chiqib ketayozdi. Ko'zimni ochsam, mehmonxonada yotibman. Tepanda onam.

- O'yijon, nima bo'ldi?

- Ha, balagining ursin-al! Senga nima bo'ldi?

Onam qo'llarimni mahkam ushlab olgandi. Boshimni ko'ksilariga qo'yib yotgim keldi. Yuzimga tushgan yosh tomchilaridan sergak tortib, ko'zimni ochdim.

- Ajalimdan besh kun avval o'ldirmoqchiming?

Yuz-ko'zimga sinovchan tikilib turdi. Onamning mehri taffini g'azabnok ovozi

bosib ketdi. Jim yotaverdim. Ikki yuzimdan ushlab o'zlariga qaratdi, keyin shunangangi tarsaki tushirdiki, ko'zimdan o't chiqib ketdi. Mahkam quchoqlab oldim, uzoq yig'lashdik. Yuragimdagi g'ubor targab ketdi. Jonimga qasd qilmagandim. Shunchaki, xavotirimni aritmogchiydim. Buni onamga ayta olmadim.

Olam ko'zimga binoyidek ko'rina boshladi. Gap-so'zlar sal bosilgach, menga tikilgan "bir juft ko'z"ni qidirishga tushdim. Izlaganim sari hadik ulkanlashar, cho'ldagi g'ayritabiiy hodisalarga ulanib ketardi. Men aslida xavotirni yuragimdan sidirib tashlashim zarurligini xayolimga keltirmasdim.



BO'Y BERMAGAN BOLALIK

Qishning ilk oyi yarimladi. So'ppaygan darraxtlarda yashillikdan asar yo'q: "Bir yaproq qolmaptur shivirlayturg'on..."

Hali bahor kelsin, maysalar-u yaproqlarning shivirlashiga mahiyo bo'lmagan kim-sani topolmaysiz. Kuzda xazonlarni yig'ib, mol-qo'ylarga xashak o'rniga berardik. Kun o'targa. Akam bilan qoplarni to'ldirib, zichlab-tepkilartkanmiz, ingrab yuborardi go'yo. Yaqindagina boshimiz ustida edi, endi oyoqlarimiz ostida.

Keyin ulg'aydik. O'spirinlik chog'imiz yaproqlar o'zgacha shivirlay boshladi. Oydin kechalarda suvganimizni intizor kutarkamiz, chapak chalayotgandek ko'rinar, sal o'tib andishalanib yuz-ko'zlarini berkitardi. Tong yorisha boshlagach qo'l silkitib xo'shlashadi. Kuz kelgach, qadrdon teraklarning xazon yaproqlari sirimiz bilan birga ko'milib ketadi. Ko'klam kelib yangilari bo'y ko'rsatadi. Ke-linlik libosidagi go'zalni uzoqdan kuzataman. Yaproqlar boshimni silab tasalli beradi. Mu-habbatimizga guvoh terakni quchib, yig'lagim keladi. Baridan bexabar ko'ngli yarim oy havaslanib boqadi.

Oradan yillar o'tdi. Osuda tunlarning birtida o'g'ilchamni to'sishga olib chiqaman.

– Dadajon, qarang, osmonning chirog'i yoniq qolibdi.

Eshitmaganga olaman, oy o'tmishimni eslatadi. Qora bulutlar oydinlikni xiralashtiradi.

– Bizning svetimiz o'chmaydi-ya?..

Uning bidillashlari qulog'imga kirmaydi. Oyga termulib so'zlashganlarimni qo'msayman. Xayollanaman. Etagimdan tortgan o'g'ilchamni opichlab olaman.

– Sendan yaxshisi yo'q, – deyman yuzidan chimchilab.

Uning jag'i ochiladi, ancha vaqtgacha uxlamay yotamiz. Ko'zim ilinib, tush ko'ribman. Yam-yashil maysalar bilan qoplangan bog'damiz. Kurtak yozish arafasidagi daraxtlarga yaqinlashsangiz yutib yuborgudek. Qulog'imga nay navosi chalindi. Boriqqa singib, ilg'alarga qo'shilib ketgim keladi. Mungli xirgoyidan o'zimga keldim. Qarshimda u to'kin savatchani tutib turardi. Qo'l cho'zmoqchi edim, yuzimga beozor urib qo'ydi.

Uyqusirayotgan o'g'ilning qo'lchasini sekin surib, joyiga o'tqazdim. Tushimning davomini ko'rishni xohladim. Iloji bo'lmadi. Tashqariyadim. Yaproqlarni shitirlatib o'ynayman, silkitaman. Birortasi to'kilmaydi. Qo'lim

bilan sitib olaman. Uzoqlarda qolib ketgan suyukligimning ovozi qulog'imga chalinadi.

– Yarim kechasi nima qilib yuribsiz?

– Mana bu teraklarni ko'ryapsammi, ularni kesamiz, uy quramiz, to'y qilamiz.

– Xo'p, faqat tong otsin.

Yaproqlar qulog'imga oyoq ostida qolishni istamayotgandek shivirlaydi. Qarsak chaladi, ichimga iliqlik yuguradi. Shu tuni tong otguncha uxlamayman. Ularning shiviri qulog'im ostidan nari ketmaydi.

Biror yaproq Yaratganning izniz yerga tushmaydi. Umrin musofirchilikda o'tyapti. Qishloqqa borsam, yaqinlarim qanchalar ko'pligini his qilaman. Ko'p o'tmay oramizda ko'z ilg'amas masofa borligi sezila boshlaydi. Kinga tavallo qilishni bilmay qolaman. Yolg'iz tanang do'st, onang do'st. O'ziga sig'maydigan odamzod o'zidan kecholmaydi. O'zligi ta'qib etaveradi. Kunlarning birida bandidan uzilgan yaproqdek foniy dunyoni tark etadi.

Bu haqda o'ylasam, shaharga sig'may qolaman. Qishloqqa otlanaman. Begidir bolalik o'tgan hovli, ko'chalar, dov-daraxtlar, qir-adirlarni sog'inaman. Nazarimda, men ikitaman. Biri maktabni tugatar-tugatmas, shaharga yo'l olgan. Boshqasi qishloqda yashab yuribdi, o'zgarmagan. Tengdoshlari

allaqachon ulg'aygan, uylangan, farzandli bo'lgan. Jiyonlarimning sinchkov migozlari, onajonimning ajin bosgan yuzlarida o'tgan yillarning izlarini ko'raman.

Bolaligim menga bo'y bermaydi. Bir gal mahkam quchib oldim. Yigirma yildan buyon qarovsiz qoldirganimga qattiq ranjigan ekan. Uni unutib, tentib yuraveribman. Uzoq suhbatlashdik. Mashina yasab o'ynaganimizni, chang'i toyanimizni, qo'y boqib, kartoshka ko'mib yeganimizni, birinchi muallimdan kaltak yeb, yaxshi o'qiydigan bo'lganimizni, maktabda sheflikka talashib yoqalashganlarimizni esladik, men talabalik yillarim, sayohatlar, shahar hayotidan gapirib berdim. U ulg'ayar, men yosharib borardim.

Nihoyat, tenglashib, olamni bir xilda idrok eta boshladik. Tanish daraxtzorni aylandik. Tushimda ko'rganim yam-yashil maysalar bilan qoplangan bog' qo'r to'kib turardi. O'sha yoqqa yugurdik. Daraxtlar shodumon qarshiladi. Atrofni yaproqlar shiviri tutdi.



TEKINXO'RLAR

Qishning gahri qattiq keldi. Sovuqning zo'ridan och bo'rlar qishloq oraladi. O'tin tangis bo'lib, eski-tuskilar pechkaga qalandi. Mastura xolaning joni halak. Endi og'zi oshga yetganda elga kelgan "to'y" bo'ldi. Bolalarini uyli-joyli qilguncha qancha kuymalangandi. Endi ularning oila tashvishlarining bir uchi xolaning gardanida. O'g'illarining biri to'q, boshqasi yupun.

Sur'atjonning g'ami bolalarining qorni-ni to'yg'azish. Tun-u kun kuymalanadi. Bi-rovning qorini kurasa, boshqasining bug'do-yini tegirmonga olib boradi.

Qish yarimlamay muhtojlikdan magnitofon, televizorini sotib yedi. Farzand kutyapti. O'g'il ko'rsa, ismini Murodjon qo'yadi. Shu ko'klamga yetib olsa – marra uniki. Akasi Komilboydan qarz so'rasa, noshuddan olib, noshudga soladi. Yana quruq qaytaradi. Oxirgi borganida mehmonlarga barra qo'y go'shti-ni tortayotgan ekan. Iynini qisib, uyga qaytdi. Komilboy oshnolarini siylaydi. Qorin qo'yib,

ko'krak kerib yurgani shundan. Ular Sur'atjonni kinoya bilan eslaydi.

– Bog'ni chekkalab, ariq kovlayotgan ekan. Sababini so'rasak, teraklarning tomini bolalab ketsa, olmalarga zarar, – deydi biri. – O'sha ariqqa kuchuk tushib, o'lib yotibdi.

Qobilboy pinagini buzmaydi:

– Sodda-da, televizorini arzimagan pulga sotibdi. Topganining qadriga yetmaydi...

Maishat tong bo'zarguncha davom etdi.

Qancha aroq ichilganini Komilboy bilan, magazinch Qodir tirriq biladi.

Qir-u adirlar yashillikka burkanib qish bo'yi uxlagan daraxtlar beshikdan yechib olingan go'dakdek kerishib, yaproq yozdi. Qishloq tomlarining ustida qizg'aldoqlar barq urib bahor tonglarini chapak chalib qarshilaydigan bo'ldi. Ko'klam nasimlari ko'ngillarni yashnatadigan palla yaqin. Sur'atjonning ichi yorishmaydi. Magazinch Qodir tirriq yoqasidan oladi.

– Eplasang, xotin, bola-chaga qil, qarzingni qaytar.

– Bola-chagamni aralashtirma.

– Nima qilasan yolg'on gapirib, erta-indin bilan ikki oy o'tdi.

– Mayli, yarim gektar suvlik yerimni sen-ga beraman, – yoqasini bo'shatdi Sur'atjon. – O'g'limni tug'ruqxonadan olib chiqishga yana pul kerak.

Qodir tirriqning ko'zlari o'ynab ketdi:

– Va'da-va'dami! Yana to'rt yuz beraman, qarzlaringdan kechdim. Yeringni xatlab be-rasan.

Sur'atjon bemajol bosh iring'adi. Yana pul-ga muhtoj bo'lganida qanday xatoga yo'l qo'yganini tushunib yetdi.

Kunlar bir-birining ketidan quvib o'tardi. Bani bashar vaqt domiga sho'ng'ib ketayot-gandi. Muammolar tegrasida kuymanayot-gan odamzod o'lim sari talpinayotganini sez-maydi. Elchilik. Kimdir ota-onasini muqaddas haj ziyoratiga yuborish harakatida, yana biri mashhur san'atkorini olib kelib to'y qilmoq-chi. Boshqasi qo'shnisirikidan balandroq ikki qavatli uy qura olmayotganidan domangir. Shular orasida yorug' dunyoni bir marotaba ko'rish ilinjida yashayotganlar, bemalol hojat ushatishni baxt hisoblaydiganlar qancha?!

Komilboyning ziyofatlari ish berdi, oshno-larining ko'magida kichikroq sex ochdi. Top-ganidan qoniqmagan Qodir tirriq ishlagini

xorijga otlangan. Ko'klamning ilk nasimi esib, qishloqda hayot qaynayotgan mahal sovuq xabar tildan-tilga ko'chdi:

– Sur'atjon o'tib qolibdi?!

– O'g'illik bo'lgan ekan-a, esiz bolal!

– O'zi odamlarda mehr-oqibat qolmadi, shundan.

Janozaga yig'ilgan ko'pchilikning diydasi qotib ketgan. "Bandalik..." – qarshi tomon-niung mungli bosh iring'ashi. Ikki-uch qadamdan keyin hammasi unutiladi. Falonchining yan-gil mashina olgani, pistonchining kelini ketib qolganlari chaynaladi.

Qarindoshlik, qo'shnichilik, qishloqchilik hurmatiga keta olmay turganlar mehmon-xonaga yig'ilgan. Ular uch-to'rt guruh bo'lib, karta o'yiniga berilib ketgan. Biri so'kinsa, boshqalari janjallashib qoladi. Oshpazga ish-ni topshirib qaytgan Komilboy ukasining o'limini, ortida qolgan bolalarining taqdirini emas, sherigini mot qilish yo'llarini o'ylaydi.

Xotin-xalaj yoppasiga qozonboshida ov-qatga unnagan. Kelim-ketim hali uzilgani yo'q. Hech bo'lmasa, birrov ko'rinish kerak, ko'z-ko'zga tushadi. O'lim hammaning boshi-

da bor. Vaqti bermalolrog'i xonadon egalari-ning ko'ngli uchun bir-ikki qo'l narda tashlaydi. Yarim kosa sho'rvani simirib, tasalli bergan bo'lib, uyiga qaytadi.

Faqat Mastura xola ich-etini yeb qo'ydi. O'g'lini eslab, chekka-chekkada ezilib yig'laydi. Xudoyisini elnikidan kam qilmadi. Odamlarning og'ziga elak tutib bo'larmidi, eri yo'qligini yuziga soladiganlarga bahona topilmasin. Nurridiyasiga o'z vaqtida yordam qila olmagan ona uning ruhini shodlantirishni istardi.

Qirqi kuni tumonat odam yig'ildi. Ular orasidan "oy orasi"da yoqqan qorni kechib, qabrboshiga boradigan mard kam topildi. Qirdagi qorni muzlama qoplagan, oyoq izi tushmaydi. Ming mashaqqat bilan darvozani ochib ichkarilashdi. Qabristonning yuqori qismi yarimlabdi. Yaqindagina bu yerlar betkay edi. Xas-xashaklar shu yerda yoqlardi. Yangi tushgan mozorlarning biri tanish, ikkinchisi notanish. Mastura xola qo'shni qishloqlik sitamdiyda ayolni yaxshi eslaydi. Sakkiz nafar bola bilan beva qoldi. O'g'illarini uyladi, qizlarini uzatdi. Loy qildi, g'isht quydi. O'g'illaridan biri qirchillama yoshida hayot bilan vidolashdi. Kenjasining to'yini ko'rish nasib etmadi. Uning yonida o'ttizga ham kirmagan ona. Voyaga yetmagan farzandlarini chirqi-

ratib dunyodan bevaqt ko'z yumdi. Taqdiri azal kelimga nimalarni hukm qilar ekan...

Xayollari chuvalashgan Mastura xola o'g'lining qabri boshiga kelib qolganini sezmay qoldi. Unga qarab, qimtingan lablarini tishlab, doddilab yuborishdan o'zini arang tiydi.

- Tekinxo'rlar, - deya pichirladi. - Kun bo'yi o'ynab o'tirguncha bir martagina xabar olasalaring bo'lmasmidi?

Cho'lib qolgan qabrga qarab, ishongisi kelmasdi. O'ziga o'lim tilab, o'ksib-o'ksib yig'ildi. Katta qirda joylashgan qabristondan qishloq, undagi har bir uy aniq-tiniq ko'rinib turadi. Marhumlar, balki ularni shu yerda kuzatib yotishar. Shularni o'ylab o'g'lining bo'laligi o'tgan chang ko'chalari, quyuq daraxtzor orasidagi uylarga biroz termuldi. O'tkazgan umri ko'z o'ngida qayta jonlangandek bo'ldi.

Mana ularning uylari, narigisi Sur'atjonlik. Uning ko'ngli och ketgandi, tuproqda suv bilan to'yinibdi, chog'i, gunohlarini yuvib ketgandir. Arjumandiga qora chaplashga xayollari-da yo'l bermayotgan Mastura xola qalitray boshlagan qo'llarini qo'ltig'iga tiqib, ko'zlarini yumdi. U allagachon foniy dunyoni tark etgan qadrdon qishloqdoshlarini qo'msayotgandi.

MEHROB

Har kimning sig'inadigan joyi bo'lsin ekan. Hech kimsaga suyanmasang, ishonmasang, bu – sening fojiasig. Jilla qursa, onangga to'kib sololmasang dilda boringni. Sanamlarga gap otishdan ne naf'i?

Otangi metin ko'ngliga boshingni qo'ya olmasang. Qoyalardek yuksaklikka ko'tarilmasang otang poyini. Yashab yurmoqlikdan nima ma'no?

Akangni yaqin yo'latmasang. Hasratingdan chang chiqmasa uning qoshida. Jigarkning ma'nosi qayda?

Opa-singillaringga bir yo'lovchidek vaqt topolmasang. Jiyanchalar tanimasa yaqindan seni. Qo'shxotinlikdan lof ochishdan uyalmoq lozim.

Qo'ling ko'kka cho'zib nolalar qilsang. Ahd qilsang sig'inib sajdada. Unutsang barini boshingni ko'targan mahal. Bir kunda besh mahal yotib-turmoqlikdan umidingni uz.

O'zingni farishta sanama. Burkanib yashama yolg'onlaringga. Qiyofa yasama. Boringcha ruhingni mehrobgga otgini!

O'ZINI TOPGAN INSON

Yer aylanaveradi. Vaqt o'taveradi. Borgan sari jisman yo'qlikka yaqinlashaveramiz. Ammo borlig'imiz hamisha biz bilan. Xo'sh, qay birini jimjimador bezashga umrimizdan o'tipon to'layapmiz. Vosita bilan andarmon bo'lib mohiyatni unutib qo'ymayapmizmi?

O'ttiz besh yoshga kirib chiqargan xulosam shu bo'ldiki, yashash uchun alohida imkon berilmas ekan. Quvonch-u qayg'umiz, kunda-lik tashvishlar orasida hayot lazzatini totishga, gardanimizdagi asl vazifani yengillatishga ulgurib qolishimiz kerak. O'zimiz vaqtni yorib vaqt hosil qilishimiz shart.

Hozir avvalgi orzu-xayollarimizda yashayotgan ekanmiz. Demak, bugungi o'ylarimizga hushyor bo'laylik. Shakkoklik bo'lsa ham, ha'zida bir o'y keladi: "Inson o'ziga-o'zi o'lim hukmini o'qiydi!"

Dahshatga tushaman, axir hamma-hammasini o'zimiz yaratayapmiz. Avval ongimizda, xayollarimizda, keyin tilimizga ko'chayapti, butun jisminimiz energiyaga aylanib magnit misol voqealarni jalb qilyapti. Tortib olyapti, tortilyapti.

Inson kiprik qoqmay turib dunyoni ostitin-ustun qilishi mumkin. Bir nafas olib chiqarguncha olamlarni kezib kela oladi. Vaqt va makon chegarasidan chiqib ketish uchun bir soniya kifoya.

Faqat O'zini topsa bas.

ONA DUOSIDAGI HAYOT

Rahmatilla har gal xorij safariga chiqishdan avval onasining qabrini ziyorat qilishga odatangan. Go'yo undan duo olgan bo'ldi. Bu gal ham mashina chambaragini qabriston tomonga burdi. Hamrohi Hakimjon hayratini yashira olmay ko'z qiri bilan unga qarab qo'ydi. U dunyo kezzagan bu yig'itning ichki ilikka berilganidan har gal uzoz safar oldidan o'tganlarga duoyi fотиha qilishi xayoliga kelmagandi. Bil'aks, xulqi buzqlikda gumon qilardi.

Ular bir qabr boshida to'xtashdi. Hakimjon Qur'on tilovat qildi, qovjiragan o't-o'lanlarni tozalashdi. Momosining nuroniy chehrasi ko'z oldiga keldi:

– Duoyi fотihadan qismanglar, bolam.
Onasi Rahmatillaning kamolini ko'rmasdi. Elining oldi bo'lib, dunyo kezzaganida yonidi.

da bo'lmaganidan yutuqlari tatimadi. Ular mashinada jim ketishardi. Mungli xirgoyi sukunatni buzdi:

Bir kuni o'zimni o'zim qarg'asam,
Onamning duosi meni asraydi...

Rahmatilla duoga qo'l ochgan onasini xotirlab ketardi. Sassis ketayotgan Hakimjonga so'z qotdi:

– Bilasammi, hozir onamning duosida yashayman.

– Yutuqlaringizning siri shu ekan-da!

– Qo'llariga suv quyarkanman: "Kamchilik ko'rmagin. O'qishga davlat o'qitgichiga kirib ketasan. Ayta-ayta yurasan..." – derdi. O'sha yili onamning barcha duolari ijobat bo'ldi.

– Momo urush yillari ko'p azob chekkan deyishadi?..

– Ha, bir oylik kelinchak avval armiyaga, keyin urushga ketib yetti yilda qaytgan otamni sabr bilan kutgan. Qoraxat kelganida unga ishonmagan.

– Jo'ra bobo urushdan bir oyog'idan ayrilib qaytgan ekan.

– O'shanda to'y bo'lib ketgan ekan. El ko'riga yurash uchun bir oyog'lab hasharlarga borarman.

Ular uzoz suhbatlashdi. Rahmatillaning musofir yurganiga yigirma ikki yil bo'libdi.

Hakimjon talaba. O'qishga kirishni Xudodan so'rab qancha yolvordi. Yig'laganlari sira esidan chiqmaydi. Xudodan mo'jiza ko'rsatishini so'raradi. Rahmatilla akaga havasi keladi, uning hayotdan ko'ngli to'q. Orzulari amalga oshdi. Osmonti to'ldirib uchganida BAXT sururi onasi tufayli kentik edi.

Bir gal qizchasini samolyot bortida rasimga tushirar ekan, bir lahzaga uning o'rnida onasini ko'rdi.

– Kul, jilmay, – deya ishora qilayotgan Rahmatilla fotokamerasini olib, ko'zlariga ishonmasdan o'rindiqqa qaradi. Unda Anora ko'ylagining burmalarini o'ynab o'tirardi. "Aqldan ozay deysan..." pichirladi u.

Hakimjon hayron tikilib qolganini ko'rib, bildirmadi. Ular yana xayolga zo'r berdilar. Rahmatilla zerikdi. Yigitardan sado chiqmaydi. Ulg'aysa, gap bermay qo'yar. O'zi ham ichimdagini top xilidan edi. Faqat onasiga yorilardi, volidasidan keyin darddosh qolmadi. Rahmatilla mashinani to'xtatdi.

– Qaranglar, boychechak chiqibdi. Yuringlar, teramiz.

Bu samimiyatdan bolalar zavqlanib ketishdi.

– Buncha chiroyli!
– E'tibor qilmagan ekanman.

Rahmatilla boychechaklarni to'yib-to'yib haddlar, tabiatni huzur bilan tomosha qilib to'ymasdi. Talabalarning hayratini sezsa-da, uzoq muddatli xorij safariga otlanganini ayt-maslikka qaror qildi. Oldinda uni nimalar kutayotganini bilmasdi.

UMMON ORTIDA

Maktab hovlisida shov-shuv boshlandi: kati kuygan ayol kelibdi...

Ko'plarning xayoli parishon bo'ldi. Erkaklar zimdan kuzata boshladi. Aksiga olib deng, kushibchimgina kelinchak qayoqqa qarasa, jilmayadi. Uning sertabassumligini hamma o'zicha tushundi. Qanchadan-qancha yoshlar uning qirmizi yonoqlaridan o'pib-o'pib olishni orzu qildi, ne-ne yigitlar uning sarvdek qomatini og'ushiga olgisi keldi.

Oradan yillar o'tdi. Shaharlik kelin qishloq odamlarining esidan chiqmadi. Yosh-yalanglar "Uning shundoqgina yonidan o'tib ketdim. Halli o'ylasam, boshqacha bo'lib ketaman" deya maqtanadi. Uzoqroqdan ko'rganlarining og'zidan bol tomadi, entikadi, xayolan uning qo'llaridan tutgan bo'ladi.

Ayni pallada sari kiygan ayol xorijiy davlat mehmonxonasida og'alaridan biri bilan don olishardi. Vallomat homiyi uni dengiz bo'yiga olib borishni va'da qilayotgan edi.

Mohira dengizni yaxshi ko'radi. To'rt tomoning suv bo'lsa, jimirlab turgan to'lqinlar ufqqa tutashib ketsa. Mayda-mayda bo'laklarga bo'linib borilqqa singib ketsang. Latif akadan bir umr minnatdor bo'lardi. "Seni ko'rib og'aynilarimning og'zi ochilib qolsin" emish. Eri rashk qilaverib hol-joniga qo'ymasdi. Bunisi esa birovlar og'zining tanobi qochganiga sevinadi?

Bir hafta o'tib sari kiygan ayolning jasadidan topildi. Tanasi idrab ketgan, tanibi bo'lmasdi.

Mohiraning orzusi ushaldi. Dengiz bo'yiga bordi. Yoshigidan oshiq sinfdoshlariga xayolan lab burdi. Mana, ummon ortida yuribdi. Mishiqilar qishloqdan nari chiqqan yo'q.

Olifra Abdulla ortidan qancha yurdi. Cho'ntagida hemiri yo'q, orzulari osmon qadar. Pulsiz nima ham qila olarding? Ko'ngil

olmoq uchun kitobning o'zi yetmaydi, mavloni! O'qib nima topdi? Shaharda ishlab-chi? Bitta tirragi ulog' ortira olgani yo'q. Birovlarning bolasisiga dars beradi. Repetitor emishi! Mardkor deb qo'ya qol. Haligacha kuyovlikka kiygan kostyumini egnidan tashlab o'laymi. Jilla qursa, ust-boshingga qarab qo'y! Qancha xushrovlari borligini bilmaydi-da. Unga kuni qolibdimi?

Shu tobda uyida chirqirab qolgan qizalog'ini eslab xotirini qo'ydi. Soliha xiyonatchi erining zurrivodi. Mohiraning qo'lini ushlashga zorlar qancha? Nega boshqa ayolga ilakishdi ekan. Xunukdan xunuk dugonasining eri boshidan suv o'g'itib ichadi. Muttaham xotinning ikkita o'ynashi bor: "O'ynashga ishonib ersiz qolmay. Hiri ketsa, boshqasi qoladi".

Sevinchi sarisida olovdek tovlanib turgan Mohira erkak-ayol aralash cho'milayotgan, qiyqirlab, raqsga tushayotgan davraga tezda moslashdi. Zormandadan qittak urib oldi. Yotoqqa kirayotgani esida. Lekin ortidan boshqa erkak ergashdi. Kimlar almashdi, nimadir talashdi. Eslolmaydi. Latifning "Puling kerak emas" deya qattiq baqirgani eshitildi. Qizalog'ining jilmaygan chehrasi ko'rindi. Keyin chingqirib yig'ladi. Turishga urindi. Gavdasini ko'tara olmadi.

Maktab hovlisida shov-shuv boshlandi: sari kiygan ayolni o'ldirib ketishibdi. Abdulla aka borib olib kelganimish. Janozaga tumonat odam yig'ildi.

RO'YO

Shaharning tezeb hayoti ko'nglini biroz qattiq qilib qo'yishi bor haqiqat. Ish bilan bo'lib yor-u-do'stlarga yetarlicha vaqt ajrata olmaymiz. Bu gal Otabek do'stim oyoq tirab turib oldi. Bir ko'rishmasak, suhbatlashmasak, naq yoritib ketishini aytib qo'rqitdi. U yosh bolaga o'xshardi. Meni telemiyoraga taklif qildi. Senga aytadigan gapim bor. Faqat o'sha yerda.

Tungi chiroqlar og'ushidagi shaharni biroz tomosha qildik. Gapimiz qovushmadi. Nihoyat, u bir nuqtaga tikilgan ko'yi hikoyasini boshladi.

— Shifoxonadan chiqdim-u, yana uni qo'msay boshladim. Xayrlashayotgan Malikaning qo'l uzatib, kulib turgan chehrasi ko'z oldimdan nari ketmasdi. Egilinqirab, o'zini avaylab yurganida, to'g'ri yuring, deya

hoshi aralash dashnom berganimni eslab, jilmayaman. Yonidan jilgim kelmaydi. Endi uni qachon ko'rarikimman?

Yana uzoqlarga ketib qolishini o'ylab o'kinaman. Mayli, sog'ayib ketsa, bas. Xayolimda chors ura boshlagan satrlarni qayd qilaman.

Tog'dir yozig'i, o'shanda uni so'nggi bora ko'rishim ekan. Qayta uchrashish nasib qilmadi. Ubdan birgina surat va xotiralar qoldi. Malika Kumushbibi'ga o'xsharkan. "O'tkan kunlar" ilmini qayta ko'rdim. Otabek o'z Kumushi bilan birga yashadi, kutilmagan baxt ilmini tuydi.

Men chi?

Ayu, chare, etding ortuq jabr bunyod, ko'ngim yoshlig', dilimda qoldi faryod, Hayotim holazoridin ayurding,

Yonib jonim, kulim ko'kka sovurding!

Martg'ildonda xizmat safarida bo'ldim. Qabr-haliga birligim ushbu to'rtlikni yuz martalab takrorladim. Otabek bilan Kumush yurgan yo'lardan yurgim, birga hayot kechirgan hovlilar ilka mayolga tolgim keldi. Imkon bo'lmadi.

Hali o'z "Kumush"imning mozorini ko'rmanman. Yig'itlik g'ururi yo'l bermay, ko'z yoshlarini aralayotgan Otabekning so'zlari yuragimni tilka-pora qilib yubordi.

Malikani undan ham kuchliroq sevadigan-dek edim. Qadrli suratni ko'rishga oshiqardim. Ammo so'zini ham bo'lolmasdim. Qodiriy bo'ning Kumushga muhabbati Otabeknikidan kuchliroq bo'lgan deyishadi.

– Rasimga termulaman, – deya o'ychan so'zini ulaydi do'stim, – uni o'zim tushirganimga ishongim kelmaydi. Suratning ichiga kirib olib, yonida bo'lib qolgim keladi. Imkoni yo'q. Kamon qoshlar panohida porlab turgan ko'zlari chaqnaib, nimtabassum bilan turaveradi: "Ishonmang, men tirikman!" deyayotgandek.

– Nega xayrlashmay ketding, o'zi oqibatining yo'q edi, – deyman. – Nahot eslamading! Hamma-hammasini kimgadir gapirib berishni, uning oxirgi kunlari, men haqidagi gaplarini eshitishni xohlayman.

– Sizga gapirib yengil tortayapman, – biroz tin oladi Otabek. – Telefon xabar kelsa, telefon jiringlasa, o'shamikin, deya ilhaq bo'laman. Ob-havo ma'lumoti bo'ladi. Otib yuborgim keladi shu savil matohni.

Davolanib yotganida xizmat safari chiqib qoldi. Yomg'ir, izg'iriga qaramay bir mahallar birga ovqatlanigan, birga orzular qilgan joyimizga bordim. Sham yorug'ida o'tirib, uni o'ylaganlarimni aytishga ulgurmadim.

Tog'da jimgitib yurganimga telefonda gaplashdim. Bevoqadan nolldim.

– Hechka ahvolim og'irlashib, tushkunlikka tashlab qoldim. O'zinni tog'larda, qirlarda hissiyot qilib, kayfiyatimni ko'tardim. Mening o'zimga ham to'yib-to'yib nafas oling. Operatsiyadan keyin hamma gina-kuduratlarni unutdim, endi hech kimni yomon ko'rmayman, – deydi u.

Uzoq gapirdi, qolganini yozib yuborishini aytdi.

Kutdim.

Kelmadik.

Bahadiri so'radim, javob yozdi: "Biroz kutib borsangiz qorayish, dedim-da, "Sog'intirib yashagan hechi" (qo'shigdan). Men tomondan: Meni bittigi va men qaytarmen" (she'rdan).

Shaharga qaytishimni intizor kutayotganini kechdim u, harolmadim. Kundalik tashvishlarga bog'lanmadim. U ketdi, butunlay ketganini hayin bildim.

Birozdaq rejalat bilan ishga kelaman. Stol ustidagi bahadirlar tartibiga solaman. Suratini o'chiraman, shuq jimgayadi: "Hech qachon o'lmayman, yuragimga yashayman!" Suratida sayohat yonida turaman, hayot o'sha joydan davom etishini soxlayman. Uni o'limdan saqlab qolgan bo'larmidim?

Mutlago shoshilmasdi. Ikkinizdan bo'lak hech kim yo'qdek, uzok sayr qilib yuridik. Zamon-u makon chegarasidan chiqib ketdik. Kech tushay deganda mashhur minoraga yaqinlashdik. Malika suratga tushish uchun qulay joy tanlab jilmaydi. Necha qayta urinmay telefonim o'chib qolaverdi. Oxiri o'zinikiga tushirib berdim.

Mana o'sha surat.

Unda qotmadan kelgan bir qiz qo'llarini cho'ntagiga solib, masurona kulib turardi.

– U bilan gaplashishni orziqib kutardim, bahona qidirardim. Hatto o'limidan keyin ham umidimni uzmadim, – deydi Otabek.

– Bir kuni telefonim jiringladi. E'tiborsizlik qilibman, Malika ekan.

Qo'ng'iroq qildim. Ovozimni eshitib, sevinib ketdi.

– Sizga sira tusholmayotgandim. Chiqqan jondan umid, deb qiluvdim. Ko'tarmagangizga hafsalam pir bo'luvdi...

Ko'rishadigan bo'ldik. Ichim baxtdan yonadi. Oshiqaman.

U bekatda aftodahol o'tirardi. Kichrayib ketgandek. Yoniga borgunimcha ko'zlarimga ishonmadim. Birinchi marotaba o'jizaligini his qildim.

– Bog'lig'im haqidagi sovuq gaplarni yolg'iz eshitish og'ir bo'ldi. Kim bilandir kelsam bo'larman. Hosa yig'lab oldim...

Ko'z yoshlarini artib, to'xtatolmasdi. Qanday o'vattishni bilmayman.

Endi o'ylasam, bir mehribon insonga tashinay hayot kechiribdi.

Hamma narsani unutaylik, – dedi pichirlab.

Teleminoraga boradigan bo'ldik. Tepaga ko'tarilarkamiz, boshqa olamga chiqib ketayotgandek edim. Tungi chiroqlarda ko'rkam bo'lgan shahar kaftidagidek ko'rinish turibdi. Malikadan taralayotgan ajib bir ifor meni sehirlab olgandi.

Sezilar-sezilmas aylanayotgan charxpalaklana vaqtning o'tayotganini bildiradi. Orzularning oxiri yo'q: Yevropadan Amerikaga o'tgan orqali sayohat qilamiz. O'tgan kunlarni eslaymiz. Juda ko'p narsalarni gapirib berdi. Yo'llardan chiqqan vogelarni eslatib, hayratlantirdi.

Juda katta ichki kurash bilan yashayman... deydi va jim qoladi u.

Ilu men bilan bog'liqmikan, degan xayolga boraman.

– Momomning ajin bosgan qo'llarini ushlayman. Mana shu qo'llar meni katta qilgan-a,

deyman. Bolaligimda onam yo'q edi, qizimning bolaligida ham men yo'qman.

O'tgan xotiralarni, har bir uchrashuvimizni bir-bir eslab chiqdik. Bu damlar "Asrga tatigulik kun" ekanini aytdim. Bir yilga tatigulik, deya kildi. Uni qizg'anishimni, fitratidagi pokizalikka sira putur yetishini istamasligimni aytdim.

Ba'zida atayin o'zimni e'tiborsiz ko'rsatardim. Bir gal uzozq yo'l bosib yo'qlab keldi. Kuzatib qo'ymadim. Yetib olsa bildirishini tayinladim. O'n ikkiga yaqin xabar keldi: "Yaxshi yetib keldim. Xavotir olmang. Xayrli tun". Biz sevishtganlarga o'xshardik.

– Sizni olib osmonlarga uchib ketish kerak, – dedim bir gal. – Keyin bir toza joy tanlab qo'nardik.

Paydar-pay telefonxabarlar kela boshladi: "Buzurmehr shunday degan ekan: "Hayot ajoyib narsa-da, kim seni sevsa, unga nisbatan loqaydsan, kim seni yoqitirmasa, unga parvona bo'lging keladi".

Javob yozdim: "Katta rahmat Buzurmehrga!"

Yana yozdi: "Bir hakim shunday degan ekan: me'yor tabiatning ittifoqdoshi. Yeganda, ichganda, harakat qilganda ham, hatto oshiq bo'lganingizda ham me'yoridan oshmang".

Javob yozdim: "Ko'ngil tabiat qonunlariga bo'yusmaydi".

Yana yozdi: "Me'yor o'zim haqidagi gap edi".

Yana yozdi: "Toshkentni, aylanishni, teatrni sog'indim..."

Teatrga tushganimiz unutilmas kun bo'lgandi. Spektakldan chiqib yangi qurilgan ko'pkcha bo'lgandik. Suratga tushgandik. Usha damlarning totini dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarga borib ham topa olmasdiki. O'sha ko'priklning yonidan o'tsam, Mahlami ko'rgandek bo'laman.

– Biz bilan yursam ayolligimni his qilaman.

Erashahingizdan...

Ovozini aukumat yutib ketadi. Ko'pkarida ulagun olgan chavandozday his qilaman o'zimni. Ma'yor tin oladi. Na fransuzcha salat, na yasash ko'rgan sharbat tomog'idan o'tmadi.

– O'vqat yetgini keladi. Restoran, kafelarga boraman. Xohlayman. Yeya olmayman.

Muttugina jussaga – shuncha azob. Uch-to'rt soat bir lahzadek o'tib ketdi. Jisman turib ketdiki. Shuqin subhatimiz, xotiralar o'sha yerda abadiy qoldi.

Mashinaga o'tirarkanmiz, ma'noli jilmaydi. Magistralonidan minoraqa kirayotganimizda biam qarshilagan qo'shiq yana taralardi.

– Bir xillikdan, hayotdan zerikish, tushkunlikka tushishga ko'p bora duch kelaman...

Nimani o'ylasa, o'shani gapirardi. So'zlari qulog'imga kirmay qo'ydi. Ishxonamiz oldida uzoq suhbatlashdik. Bag'rimga bosib, erkalagim kelar, faqat cho'chitib qo'yishni istamasdim. Vaqt allamahol bo'lib borardi, Malikani kuzatib qo'yishim kerak.

Undan telefonidagi suratni tashlab berishini so'radim. Bluetoothdan ikki dona surat kelib tushdi. Birida besh-olti yoshlik qoramag'iz qizaloq qo'lida shirinlik tutgan bo'y yetgan qizning orgasidan opichlab turibdi. Ikkinchisi menga tanish – o'zim tushirgan, soatlab termuladiganim, muhabbatimning lahzalik hayoti aks etgan suratning ayni o'zi: telemiyoraning kiraverishdagi rangli darvozasi. Qiyg'os ochilgan gullar, yashillikka burkangan daraxt, yarmi ko'rinib turgan archa...

Ammo unda nimagadir Malika ko'rinnasdi.

Otabek so'zini davom ettira olmadi. Boshqa ko'rishmadik ham. Taqdiri nima bo'ldi, bilmayman. Shaharning tezob hayoti, balki, uni ham yo'rig'iga tushirgandir.

MUNDARIJA

Kitobdagi birinchi qismning tashkili	3
Kitobdagi ikkinchi qismning tashkili	5
Kitobdagi uchinchi qismning tashkili	8
Kitobdagi to'rtinchi qismning tashkili	16
Kitobdagi beshinchi qismning tashkili	20
Kitobdagi oltinchi qismning tashkili	24
Kitobdagi yettinchi qismning tashkili	28
Kitobdagi sakkizinchi qismning tashkili	32
Kitobdagi to'qqizinchi qismning tashkili	38
Kitobdagi yigirmanchi qismning tashkili	39
Kitobdagi yigirmanchi qismning tashkili	40
Kitobdagi yigirmanchi qismning tashkili	43
Kitobdagi yigirmanchi qismning tashkili	46



UO'K: 821.512.133-32(081)

KBK: 83.3(50'zb)

N 79

N 79 Norqulov, Aziz.

Posangi [matn]: hikoyalar / A.Norqulov.
– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 56 b.

Adabiy-badiiy nashr

AZIZ NORQULOV

POSANGI

Hikoyalar

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahhili: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15, 1/90.

☎ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1,75.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №376.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

1.699 80m